

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**MAXSUDOV PO'LATJON MAXSUDOVICH**

**KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PROFESSIONAL  
TA'LIM O'QITUVCHISINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH  
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**  
(texnika oliy ta'lim muassasalari misolida)

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
педагогических наук (DSc)**

**Contents of dissertation of the Doctor of  
pedagogical Sciences (DSc)**

**Maxsudov Po‘latjon Maxsudovich**

Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish .....3

**Махсудов Пулатжон Махсудович**

Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к педагогической деятельности на основе компетентностного подхода.....27

**Makhsudov Po‘latjon Makhsudovich**

Improving the technology of preparing future vocational education teacher for teaching activities based on a competency-based approach .....55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....59

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**MAXSUDOV PO'LATJON MAXSUDOVICH**

**KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PROFESSIONAL  
TA'LIM O'QITUVCHISINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH  
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**  
(texnika oliy ta'lim muassasalari misolida)

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.I.DSc/Ped 463-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.ipitvet.uz) da va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) da joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Ismailova Zuxra Karabaevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muslimov Narzulla Alixanovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xakimova Muxabbat Fayziyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**O'rinov Uyg'un Abullaevich**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Etakchi tashkilot:**

**I.A.Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "15" oy soat 20<sup>o</sup>dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel.: (+998 71) 246-92-17; faks: (+998 71) 246-90-37, e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 117 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel.: (+998 71) 246-92-17; faks: (+998 71) 246-90-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "4" oy kuni tarqatildi.  
(2025 yil 4.01 dagi № 14 raqamli reyestr bayonnomasi)



**R.X. Djuraev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, p.f.d., akademik

**S.Yu. Ashurova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
a'zosi, p.f.d., professor

**H.Sh. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
a'zosi, ilmiy seminar raisi, p.f.d.,  
professor

## **KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo xamjamiyati hayot faoliyatining barcha soxalarida ko'p qirrali o'zgarishlar bo'lib o'tmokda, bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy shakllantirishga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilaridan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni egallash hamda ularni professional ta'lim jarayonida qo'llash talab etiladi. Jahonda professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning shaxsiy va kasbiy sifatleri (refleksivlik, o'z-o'zini faollashtirish, yaratuvchanlik, ijobiy "Men-kontseptsiyasi" va maqbul axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berish hamda raqamli texnologiyalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish)ni rivojlantirishga qaratilgan variativ ta'lim texnologiyalari asosida ularda mustaqil harakat qilish va o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini kompetentli yondashuv asosida metodik faoliyatga tayyorlashni modellashtirish, malaka, faoliyat, kompetentsiya va kompetentlikni o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi funktsional-faollik va kompetentli yondashuvlar orqali metodik tayyorgarlik mazmunini loyihalash, amalga oshirish va tahliliy komponentlar uzviyligida ishlab chiqish, talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini mobil ilova va dasturiy ishlanmalar ishlab chiqish asosida takomillashtirish, talabalaridagi metodik faoliyatga tayyorgarlikning rivojlanganlik darajasini aniqlashning motivatsion, aksiologik, metodik faoliyatli, ijodiy mezonlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bunda bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish hamda kasbiy pedagogik faoliyatning kognitiv, innovatsion, loyihalash, mehyoriy-rejalashtirish, konstruktiv, tahliliy, texnologik darajalarini puxta egallashi uchun barcha didaktik imkoniyatlarni tahminlash dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy professional ta'lim samaradorligini oshirish, kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni tuzulmalarga ajratish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim tizimiga doir islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi"<sup>1</sup> tasdiqlanib, unda "gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog mutaxassislarini etkazib berish" masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. "Ta'lim sohasining yana bir asosiy vazifasi bugungi kun uchun

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>

zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi, shubhasiz”<sup>2</sup>. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarining o'z kasbiy fani bo'yicha etarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, o'qitish metodikasi bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni egallagan bo'lishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5812-sonli Farmonlari, 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan tahminlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4939-sonli, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-289-sonli Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**<sup>3</sup> Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari, professional ta'limning etakchi strategiyasi sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv borasida dunyoning Massachusetts University (AQSH), Belfield pedagogical University (Germaniya), National Advice on pedagogical Technology (Angliya), Seoul Cyber University (Janubiy Koreya), Rossiyskiy gosudarstvennyy professional'no-pedagogicheskiy universitet (Rossiya), “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti (O'zbekiston) kabi nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida o'qitishning didaktik vositalarini qo'llash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan o'qitishning anhanaviy va zamonaviy didaktik

<sup>2</sup>Mirziyoyev Shavkat. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. 464 b.

<sup>3</sup>Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.massachusetts.edu/> <https://bellfield.nsw.edu.au/> [https://ceinternational1892.org/article/emerging-technologies-and-their-implications-in-early-childhood/?gad\\_source=1&gclid=EAIaIQobChMI3K6pnb-xigMV1g-iAx2D9Bc0EAAYASAAEgJqYPD\\_BwE](https://ceinternational1892.org/article/emerging-technologies-and-their-implications-in-early-childhood/?gad_source=1&gclid=EAIaIQobChMI3K6pnb-xigMV1g-iAx2D9Bc0EAAYASAAEgJqYPD_BwE) <https://www.iscu.ac.kr/global/eng/> <https://rsvpu.ru/> <https://tiiame.uz/> <https://www.bayer.com/media/en-us/smallholder-farmers-from-africa-call-for-improved-access-to-technology-to-enable-regenerative-agriculture-and-foster-resilience/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

vositalari asosida talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishning integrativ texnologiyasi ishlab chiqilgan (Chicago university, Amerika); Angliya, AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlarda kasbiy tayyorlash tizimini modernizatsiyalash borasida katta ishlar olib borilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning o'quv jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy o'qitish texnologiyalar (o'qitishning tg'yutorlik tizimi, o'qitishni ixtisoslashtirish, brigada-individual ta'lim, o'zaro o'qitish yoki o'zaro-maslahat) kasb ta'limi mutaxassislarini intellektual va psixoemotsional rivojlanishini, ijodiy o'sishi har tomonlama individual rivojlanishini tahminlamoqda.

Germaniyada dual ta'lim tizimi mukammal darajada rivojlangan bo'lib, kasb ta'limi mutaxassislarini tayyorlashda "professional ta'lim-oliy ta'lim-ishlab chiqarish" uzviyligini tahminlashga katta ahamiyat berilgan. Idrok qilishning vizual va audio vositalari orqali ta'lim oluvchilarning kasbiy shakllanishiga maqsadli kompleks tahsir ko'rsatish metodikasi ishlab chiqilgan (Institute named after Frica Bauer, Germaniya); o'qitishning zamonaviy texnologiyalari (tyutorlik tizimi, ixtisoslashtirilgan ta'lim, modulli o'qitish, brigada-individual o'qitish, o'zaro o'qitish yoki o'zaro maslahat) asosida bo'lajak o'qituvchilarni intellektual va psixoemotsional rivojlantirish tizimi yaratilgan (National Advice on pedagogical technology, Angliya); mobil elektron qurilmalar bazasida elektron ta'lim resurs-larini yaratish va amaliyotga joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan (Seoul Cyber University, Janubiy Koreya); bo'lajak o'qituvchilarda loyihalashtirish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid ta'limning yangi texnologiyalari ishlab chiqilgan (Pedagogik texnologiyalar markazi, Rossiya); kasb ta'limi o'qituvchilarini masofadan o'qitishda axborot ta'lim muhitini yaratishning nazariy-metodik va tashkiliy-pedagogik asoslari o'quv-metodik va axborot tahminotini mustahamlash asosida takomillashtirilgan (Professional ta'limni rivojlantirish instituti, O'zbekiston).

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Respublikamizda professional ta'limning shakllanishi va rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendentsiyalari hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muammolari R.X.Djuraev, Sh.E.Qurbonov, A.R.Xodjabaev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, S.Yu.Ashurova, Z.K.Ismailova, M.B.Urazova, D.O.Ximmataliev, J.A.Hamidov, O.A.Qo'ysinov, R.K.Choriev, Z.T.Raximov, Z.Sh.To'xtaeva, B.B.Ergashev va boshqa olimlarning ishlarida atroflicha o'rganilgan.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining metodik faoliyati va uni shakllanish jarayoni, uning metodologik asoslari, uzluksiz kasb-hunar ta'limi tizimlarini qurish va rivojlantirish masalalari A.X.Arenova, N.A.Astashova, A.Yu.Bexter, V.P.Bespalgko, M.N.Berulava, V.A.Bolotov, A.A.Verbitskiy, M.V.Eliseyeva, E.F.Zeyer, M.M. Zinovnika, I.A.Zimnyaya, O.I.Istrofilova, Ilg'in Ye.P., N.V.Kuzmina, P.F.Kubrushko, G.L.Kopoteva, I.Yu.Kovaleva, Ye.A.Markushevskaya, N.V.Solovova va boshqa bir qator MDH davlatlari olimlarining ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

O.Avidov-Ungar, B. S.Bloom, J.Dewey, E.Eisner, W.Emo, F.Ende, C.Glesne, M.Gordon, T.Guskey, M.B.Horn, M.M.Kennedy, W.Kohli, F.Korthagen, A.Rutter, K.Shabani kabi xorijiy davlatlar olimlarining ilmiy izlanishlarida ta'limda kreativlik,

o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, kompetentlik masalalari, kasbiy pedagogik etuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalaridan foydalanish ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining professional ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olish jarayonida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini shakllantirishning shakl hamda metodlarini takomillashtirish muammosi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini kasbiy-pedagogik shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. Bunda, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisi kasbiy shakllanishining pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash va ularning kasbiy shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarini asoslash muhim ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika institutining OT-F1-049 "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" (2017-2021-yy.) mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy muhim sifatlar, kasbiy intellekt, kasbiy qobiliyat, individual-psixologik xususiyatlar va metodik kompetentlikning tarkibiy komponentlari mazmunini takomillashtirish;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-tuzilmaviy modelini takomillashtirish;

zaruriy kasbiy kompetensiyalarning alohida komponentlarini va pedagogik faoliyatni o'ziga xos bosqichlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari hamda kredit-modul tizimi talablari asosida takomillashtirish;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan baholash komponentlarini va ob'ektiv baholovchi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** texnika oliy ta'lim muassasalarida kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakli, metod va vositalari.

**Tadqiqotning usullari:** tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, didaktik materiallar, DTS, o'quv reja va dasturlari, o'quv-mehyoriy xujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish; kuzatish, suhbat, tashxislash,



anketa so'rovnomasi, test, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov; tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kompetentlikka yo'naltirilgan hamda an'anaviy yondashuvlarning ilmiy-qiyosiy tavsiflash natijasida malaka talablari asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy muhim sifatlar, kasbiy intellekt, kasbiy qobiliyat, individual-psixologik xususiyatlar va metodik kompetentlikning tarkibiy komponentlari mazmuni bilimlarni majmuaviy amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan kasbiy ko'nikmalarni kiritish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan, tarkibiy jihatidan o'zaro bog'langan bir butun yaxlit integral tuzilmani tashkil etuvchi didaktik tizimi, innovatsion metodologiyasi, samadorlikni aniqlashga qaratilgan natija bloklarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy-tuzilmaviy modeli takomillashtirilgan;

zaruriy kasbiy kompetensiyalarning alohida komponentlarini va pedagogik faoliyatni o'ziga xos bosqichlarini rivojlantirishga imkon beruvchi o'qitish usullari, shakllari va vositalarini integratsiyalash orqali pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan metodik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi "Agile ta'lim texnologiyalari" asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari xamda kredit-modul tizimi talablari asosida mustaqil ta'limni ijodiy faollashtiruvchi omili sifatida o'zini-o'zi (kuchli, kuchsiz va muvozzantlovchi tomonlarini) rivojlantirishga yo'naltirilgan "Problem Based Learning" texnologiyalarini qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan baxolash komponentlarini kasbiy faoliyatda qo'llay olish jarayonida talabalarning amaliy xarakterlar majmuasini rivojlanganligini diagnostik, prognostik mezonlari va darajalarini (yuqori, o'rta, quyi) ob'ektiv baholovchi ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha "Kasb ta'limi metodikasi" va "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanlarining ishchi o'quv dasturlarining mazmuni rivojlantirilgan;

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 2-noyabrdagi 1023-son buyrug'i asosida 1023-066-son nashr ruxsatnomasi bilan "Методика профессионального обучения" nomi o'quv qo'llanma hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-son buyrug'i asosida 414074-son nashr ruxsatnomasi bilan "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" nomli darslik yaratilgan va o'quv jarayonida foydalanilmoqda;

oliy ta'lim muassasalarida professional ta'lim yo'nalishi talabalarini "Kasb ta'limi metodikasi" fanini o'qitishda mustaqil ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan

elektron darslik (DGU 29284) va mobil ilova yaratilgan (DGU 34094) o'quv jarayonida foydalanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo'llanilgan tizimli va kompetentli yondashuvlar, metodlar, vositalar, nazariy ma'lumotlar, respublikamiz va xorijiy olimlar tadqiqot natijalarining me'yoriy hamda rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida asoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashni tizimli funksional-tuzilmaviy modelining amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan o'quv-metodik va mobil-didaktik ta'minoti ilmiy-metodologik yondashuvlar hamda oliy ta'limning kredit modul tizimi talablari asosida ishlab chiqilganligi va metodik tizimning takomillashtirilganligi, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish va tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga tatbiq etildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati texnika oliy ta'lim muassasalarida professional ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi", "Методика профессионального обучения" nomli o'quv qo'llanma va darsliklarning ishlab chiqilganligi hamda bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni va pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish yuzasidan elektron o'quv qo'llanma, darslik va elektron dasturlari ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga tatbiq qiindi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Professional ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

kompetentlikka yo'naltirilgan hamda an'anaviy yondashuvlarning ilmiy-qiyosiy tavsiflash natijasida malaka talablari asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy muhim sifatlar, kasbiy intellekt, kasbiy qobiliyat, individual-psixologik xususiyatlar va metodik kompetentlikning tarkibiy komponentlari mazmuni bilimlarni majmuaviy amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan kasbiy ko'nikmalarni kiritish bo'yicha berilgan takliflar asosida "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" nomli darslik ishlab chiqilgan hamda o'quv jarayoniga tadbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2022 y. 17.03 dagi 106-sonli buyrug'i). Mazkur darslik professional ta'lim yo'nalishi talabalarining metodik faoliyatga tayyorlashga xizmat qilgan;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan, tarkibiy jixatidan o'zaro bog'langan bir butun yaxlit integral tuzilmani tashkil etuvchi didaktik tizimi, innovatsion metodologiyasi, samadorlikni aniqlashga qaratilgan natija bloklarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy-tuzilmaviy modelini ishlab chiqish va professional ta'lim jarayoniga joriy

etish bo'yicha berilgan takliflardan Jizzax politexnika institutining OT-F1-049 "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 31.01 dagi 02/01-01-12 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur model bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qilgan;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini malaka, faoliyat, kompetensiya va kompetentlikni o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi metodik tayyorgarlik mazmunini tanlash mexanizmini ishlab chiqish hamda professional ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy kompetensiyalarini va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi bo'yicha berilgan takliflar asosida "Metodika professionalnogo obucheniya" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan hamda o'quv jarayoniga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 06.10 dagi 522-sonli buyrug'i). Mazkur o'quv qo'llanmalar bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qilgan;

bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan "Problem Based Learning" texnologiyalari "Kasb ta'limi metodikasi" va "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanlaridan elektron didaktik ta'minot hamda "maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanidan mobil ilova mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 31.01 dagi 02/01-01-12 – sonli ma'lumotnomasi). Mazkur elektron va mobil didaktik ta'minot bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini mustaqil ta'lim olish orqali pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi va mahqullandi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqotlar mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ishlar, 2 ta monografiya hamda O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, shu jumladan, 3 ta xorijiy, 11 ta respublika miqyosidagi jurnallarda chop etilgan, hammualliflikda 2 ta o'quv qo'llanma va 3 ta darslik chop etilgan, Intellektual mulk agentligidan 7 ta guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya hajmi 209 betni tashkil etgan, kirish, to'rtta bob, xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi mahlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kompetentli yondashuv asosida professional ta’lim o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida OTMlarda professional ta’lim o’qituvchisini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning amaldagi holati va muammolari tahlili, bo’lajak professional ta’lim o’qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning tarkibiy tuzilmasi, bo’lajak professional ta’lim o’qituvchilarini metodik faoliyatga tayyorlashda kompetentsiyaviy yondashuvning ijtimoiy zaruriyat sifatidagi tahlili, bo’lajak professional ta’lim o’qituvchisi kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan.


Professional ta’lim muassasalaridagi o’qitish jarayoni o’zaro mustaqil, ammo o’zaro aloqador bo’lgan nazariy va ishlab chiqarish ta’limidan iborat. Ayni shu hol o’quv jarayonini ham o’ziga xos ravishda rejalashtirish va amalga oshirishni taqozo etadi va ko’p hollarda o’quv-hunar tavsifli ko’rinishni oladi.

Bizningcha, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarining professional ta’lim (sohalar bo’yicha) bakalavrlar tayyorlash bo’yicha amaldagi o’quv rejalari yuqorida ko’rsatib o’tilgan talablarning bajarilishini etarlicha ta’minlay olmaydi. Ularda asosan professional ta’lim muassasalarida yo’nalishlar bo’yicha kasbiy fanlardan nazariy mashg’ulotlar olib boruvchi professional ta’lim o’qituvchilarining metodik faoliyatigagina mos keladigan kasbiy-pedagogik faoliyat e’tiborga olingan.

Professional ta’lim o’qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati – professional ta’lim tizimi tashkil etilgan davrdan, to hozirga qadar mohiyatiga ko’ra ham, tashkil etuvchilari hajmiga ko’ra ham katta farqlarga ega murakkab ta’lim tizimi sifatida tadqiq qilib kelinayotgan muammolardan sanaladi.

60112400 – Professional ta’lim (sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi - fan va texnika sohasidagi yo’nalish bo’lib, u o’quv fanlari, vositalari, uslublari va pedagogik faoliyatning usullarini, soha (qurilish, qishloq xo’jaligi, sanoat, transport va b.) ni o’rganishga yo’naltirilgan inson faoliyatining usullari, uslublari va vositalarini yig’indisini o’z ichiga oladi. Ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr kasbiy faoliyatining ob’ektlariga kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlardagi o’quvchilar, o’quv-tarbiyaviy jarayonlar, pedagogik texnologiya va o’qitish uslublari, soha tarmog’idagi korxonalar va muassasalar kiradi.

Bugungi kun oliy ta’lim tizimi bilimga yo’naltirilganlikdan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga e’tiborning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash professional ta’lim tizimida yuzaga keladigan o’zgarishlar ta’lim muassasasi pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zarurat tug’diradi. Kompetentli yondashuv bu ta’limni modernizatsiya qilishning boshlang’ich nuqtasi bo’lib, u oxirgi mahsulot sifati, ya’ni bitiruvchining kompetentligini ko’rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiya shaxsning (professional mutaxassis, bitiruvchi, stajyor) bilim va vaziyat o’rtasidagi aloqalarini o’rnatishga, kasbiy muammoni hal qilish yo’llarini shakllantirishga umumiy tayyorligi sifatida qaraladi.



**1-rasm. Professional ta'lim (qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish) ta'lim yo'nalishi kasbiy faoliyat turlari**

Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy mohiyati fanlardan tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadvalda ta'limga anhanaviy va kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tavsifi keltirilgan.

**1-jadval.**

**Ta'limga an'anaviy va kompetentli yondashuvlarning qiyosiy tavsifi**

<b>An'anaviy yondashuv</b>	<b>Kompetentli yondashuv</b>
Bilim, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan	Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan
Tayanch ta'lim muassasalar dasturlariga tayangan holda amalga oshirish	Kasbiy-ta'limiy dasturlarni modernizatsiyalashga qaratilgan holda amalga oshirish
Ta'limni ta'lim beruvchi faolligida axborotli mahruza shaklida tashkil etish	Ta'limni ta'lim oluvchilar faolligida jonli, jo'shqin innovatsion ruhda tashkil etish
O'qitishning sinf-dars tizimi doirasidagi an'anaviy metodlar	Kasbiy-ta'limiy dasturlarni o'zlashtirishning individual va kompetentli yondashuviga yo'naltirilgan noan'anaviy metodlari
Talabalar bilan jamoaviy ishlash	Individual ravishda ishlash, juftlikda, kichik guruhlarda ishlash
Ta'lim beruvchi faoliyatining faqat	Ta'lim beruvchi faoliyatining moderator

ma'lumot beruvchi shaklidagi harakati	shaklidagi harakati
Ta'lim oluvchilar faoliyatining tinglovchi, yozib oluvchi, ma'lumotlarni qabul qiluvchi, to'lovchi va xotirasida saqlovchi shaklidagi harakati	Ta'lim oluvchilar faoliyatining munozaraga kirishuvchi, taqdimot qiluvchi, tajriba o'tkazuvchi, tadqiqotchi, intellektual bellashuv muhitida faol ishtirokchi, konstruktor-yaratuvchi shaklidagi harakati
Tuzilma ta'lim muassasasi faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan	Tuzilma ta'lim muassasasini innovatsion rivojlantirishga yo'naltirilgan
Bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligini nazorat qilish va tekshirishga yo'naltirilgan baholash	Bo'lajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetentligining rivojlanish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan baholash

Keltirilgan tavsiflarni tahlil etish natijasida ta'limga kompetentli yondashuvning vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlab olish mumkin, xususan:

- bilimlar izlanish va fikrlash faoliyatlari, ijod jarayoni mahsuli sifatida turli xil shakllarda tizimli, fanlararo hamda umumlashtirilgan holda beriladi;

- pedagog "boshqaruvchi", "hamkor" sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni hamkorlik qilish, demokratik ravishda tahsir o'tkazish, yordam berish, ruhlantirish, talabani shaxsiy tashabbuslariga e'tiborli bo'lish, uning shaxsini rivojlantirishga intilish pozitsiyasini egallaydi;

- professor-o'qituvchilar va talabalar bilan faol hamkorlik qilishga, bir-birini qo'llab-quvvatlash va o'zaro mas'uliyatlilik muhitini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi;

- ta'lim oluvchilar uchun ta'lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqotning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o'zlashtirishlari, hamkorlikda ishlash va ijod qilish quvonchini his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

- harakat va xulq-atvorlarning oldindan belgilab qo'yilgan namunasiga mosligini baholashdan voz kechiladi.

Ta'lim mazmunini yangilash va ta'lim sifatini oshirishning muhim kontseptual qoidalaridan biri sifatida oliy ta'lim muassasalarida professional mutaxassis tayyorlashga kompetensiyaga asoslangan yondashuv joriy qilingan. Ushbu yondashuv kontseptsiyasi "natijadan" shakllanadigan ta'lim mazmunini talqin qilish mafkurasini o'z ichiga oladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv – bu professional mutaxassisni samarali tayyorlashni ta'minlaydigan nazariy bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, kasbiy ahamiyatga ega va shaxsiy fazilatlarining optimal nisbati asosida kompetensiya va malakalarni shakllantirishga qaratilgan uslubiy, paradigmatic tarkibiy qismlarning majmui hisoblanadi

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini metodik faoliyatga tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar, professional ta'lim o'qituvchilarini metodik faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari va bosqichlari, professional ta'lim o'qituvchilarini metodik faoliyatga tayyorlashning didaktik tizimi, bo'lajak

professional ta'lim o'qituvchisining metodik faoliyatini tayyorlash tizimini modeli ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda pedagogika fani va amaliyotida professional ta'lim o'qituvchisini oliy ta'lim muassasasida tayyorlash, uning kasbiy va shaxsiy xislatlari hamda malakalarini shakllantirish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan, biz bo'lajak professional ta'lim bakalavrining tayyorgarligini rivojlantirish muammosiga ilmiy murojaat qildik. Ushbu muammoni shakllantirish bakalavrning "kasbiy tayyorligi", "kasbiy-pedagogik tayyorligi", "pedagogik tayyorligi" tushunchalarini ularning birligi va farqlarida tahlil qilish bilan bog'liq.

Professional ta'limning pedagogik tizimi uchta: shaxsiy, mazmunli va tashkiliy komponentda namoyon bo'ladi.

**Shaxsiy komponent** professional ta'lim tizimning o'zagi bo'lib, har bir shaxs uchun individual ta'lim yo'nalishlarini qurishni, talabalarning keyingi kasbiy o'sishi uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarni ta'minlashni nazarda tutadi.

**Mazmun komponenti** amaldagi Davlat ta'lim standartlari, iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarini ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik jihatdan bashoratlash ma'lumotlarini hisobga olgan holda keng doiradagi professional ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

**Tashkiliy komponent** ta'lim shakllari, metodlari va texnologiyalarining ta'lim maqsadlari va mazmuni bilan bog'liqligidan kelib chiqqan holda o'zgaruvchanligini ta'minlaydi.

Pedagogik tayyorgarlik tizimining ishlab chiqilgan modelini asosi bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini tayyorlash davomida faoliyatning funksional asosiy invariant birliklarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish g'oyasi 2-jadvalda keltirilgan.

Bosqichlar soni va ularning xususiyatlari biz tomonimizdan kasbiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish xususiyatlarini tahlil qilish asosida aniqlanadi.

*1-bosqich* pedagogik faoliyat texnologiyasi bilan tanishish, uning nazariy asoslari (tuzilishi, algoritmi va boshqalar) ni o'zlashtirish, shuningdek, kelgusi faoliyatni amalga oshirish uchun zarur motivatsiyani shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Bu faoliyatga "Mutaxassislikka kirish", "Yosh davrlari fiziologiyasi va gigienasi" kabi fanlarni o'rganish, shuningdek, o'quv-tanishuv amaliyoti jarayonida erishiladi. Ularning mazmunidagi har bir element ushbu bosqichning yakuniy natijalariga ham, butun jarayonga ham aniq yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

*2-bosqichga* shaxs va jamoani o'rganish, tashxis qo'yish va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq harakatlar majmuasi kiradi; ta'lim jarayonining umumiy strategik maqsadlarini ishchi maqsadlarga aylantirish, uning qonunlari va tamoyillarini belgilash. Ushbu harakatlar keyingi bosqich uchun indikativ asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur bosqichda ilgari qabul qilingan yondashuvlarga ko'ra – metodik tayyorgarlikning mohiyatini aniqlaydigan metodik harakatlar elementlarini shakllantirish boshlanadi.

## Pedagogik tayyorgarlik tizimi bosqichlari va komponentlari

Bosqichlar	Komponentlar			
	Maqsadli	Mazmunli	Faoliyatli	Baholovchi-natijaviy
<b>1-kurs Yo'naltiruvchi</b>	Pedagogik faoliyat algoritmi va tuzilmasining nazariy asoslari Motivatsiyani shakllantirish Qadriyatli munosabatlar	Mutaxassislikka kirish Yosh davrlari fiziologiyasi va gigienasi	O'quv-tanishuv amaliyoti, ijodiy topshiriqlar	Monitoring Bilimlarni majmuaviy bajarishga yo'naltirish
<b>2-kurs Shakllantiruvchi</b>	Metodik elementlarni shakllantirish To'g'ri echimni tanlash Individual xususiyatlarni shakllantirish	Kasbiy pedagogika, Kasbiy psixologiya	Psixologik amaliyot, pedagogik tanishuv amaliyoti kurs ishi	Monitoring Test, nazorat topshiriqlari
<b>3-kurs Faoliyatli</b>	Integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirish Refleksiya Yo'nalganlik, diktsiya, mimika va imo-ishoralari va boshqalar	Kasb ta'limi metodikasi (1-qism umumiy metodika) Ta'lim texnologiyalari	1-pedagogik (texnologik) amaliyot, kurs ishi	Alohida elementlar monitoringi Test, nazorat topshiriqlari, ekspert baholash
<b>4-kurs Shaxs sifatida qayta tuzdiruvchi</b>	Loyihalash, texnologik, tahliliy innovatsion amallarni mustaqil, ijodiy bajarish	Kasb ta'limi metodikasi (2-qism xususiy metodika) Tarbiyaviy ishlar metodikasi	Pedagogik amaliyot, kurs ishi, BMI oldi amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi	Texnologik, tahliliy, innovatsion, loyihalash faoliyatga tayyorgarlikni baholash

Bunda, birinchi navbatda, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisi metodik faoliyatining ajralmas komponenti bo'lgan ta'lim jarayonini loyihalash bo'yicha harakatlar majmui shakllantiriladi.

Shunday qilib, loyihalash harakatlari majmuasi quyidagilar: 1) maqsad va vazifalarni; 2) o'qitish mazmunini loyihalashni; 3) optimal ta'lim texnologiyasini loyihalash, shu jumladan, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllarini, o'qitish usullarini, qo'llaniladigan didaktik vositalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Bu harakatlar "Kasbiy pedagogika" va "Kasbiy psixologiya" fanlaridagi amaliy mashg'ulotlarda shakllantiriladi va ketma-ketlik yakuniga ko'ra, tashqi ko'rsatmalar asosida mustaqil bajarish darajasiga etkaziladi.

Ushbu daraja pedagogik tayyorgarlikning uchinchi bosqichiga o'tish uchun zarur



bo'lib, u yanada murakkab birlashtirilgan shakllanishlarni - metodik harakatlarni shakllantirish uchun ishonchli asosni yaratadi.

*3-bosqichda* faoliyatni bajarish batafsil ko'rsatmalarsiz bajarilsa-da, lekin baribir tashqi ko'rsatmaga tayanadi. Bu bosqichda harakatlarning ayrim elementlari qisqartirilib, avtomatlashtirila boshlaydi va umumlashtiriladi.

Masalan, ta'lim texnologiyasini loyihalashda o'qitish usullarining xususiyatlarini ma'lum o'ziga xos shartlar bilan taqqoslash kabi jarayonni bajarish vaqti kamayadi; talaba operatsiyalarni tezroq bajara boshlaydi.

Uchinchi bosqichning mazmun sohasini "Ta'lim texnologiyalari", "Kasb ta'limi metodikasi" (1-qism), fanlari va birinchi (texnologik) pedagogik amaliyoti tashkil etadi. Bu bosqichda bahzi metodik elementlarni bajarish vaqti qisqartirila boshlaydi, avtomatlashtiriladi va umumlashtiriladi.

*4-bosqichda* faoliyatning rivojlanishi mustaqil (tashqi rahbarlikka tayanmasdan) va ijodiy amalga oshiriladigan darajaga keltiriladi. Jarayonlar va harakatlarning alohida (ayniqsa, texnik xususiyatga ega) elementlari avtomatlashtirilib, mahoratga aylanadi.

Bu bosqichning mazmunini "Kasb ta'limi metodikasi" (2-qism xususiy metodika), "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanlari, shuningdek, yakuniy pedagogik va BMI oldi amaliyotlari, bitiruv malakaviy ishlari tashkil etadi.

"Kasbiy psixologiya", "Kasbiy pedagogika", "Ta'lim texnologiyalari" fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, pedagogik amaliyot to'rt bosqichning har birini ajralmas qismi sifatida, uzluksiz jarayon davomida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishga imkon beruvchi yakuniy amaliy mashg'ulot tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi.

Maqsadlarga erishish samaradorligi fanning pedagogik tayyorgarlik tizimida qanday rol o'ynashiga, asosiy yoki yordamchi bo'lishiga bog'liq. Pedagogik tayyorgarlikning butun tizimi uchun asosiy, yakunlovchi, yaxlit fan rolini "Kasb ta'limi metodikasi" fani bajaradi, qolgan fanlarida esa ushbu tayyorgarlik ta'minlanadi.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan bosqichlarning har biri pedagogik faoliyatni rivojlantirish bosqichi bo'lib, fanning bir qismini, to'liq fanni, shuningdek, pedagogik amaliyotlar, kurs ishlari va ijodiy topshiriqlarni bajarish va o'tash jarayonlarida hal qilinadigan muayyan maqsad va vazifalarga erishishga yordam beradi.

Quyida uzluksiz pedagogik tayyorgarlikning qabul qilingan modeliga muvofiq pedagogik faoliyatni shakllantirish bosqichlarining umumlashtirilgan tavsifi keltirilgan.

*Birinchi bosqich* pedagogik faoliyatni yo'naltiruvchi asoslarini o'zlashtirish (algoritm, tuzilma va boshqalar), faoliyatni bajarish shartlari orqali uni amalga oshirish texnologiyasi bilan tanishishni o'z ichiga oladi.

*Ikkinchi bosqich* pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich o'zlashtirishdan iborat. Faoliyatni amalga oshirish jarayonini hayoliy modellashtirish. Algoritmalar, sxemalar, texnologik xaritalar, metodik ishlanmalar, rejalar va boshqalarni ishlab chiqish. Tashqi ko'rsatmalar, texnologik xaritalar, yo'riqnomalar, metodik ishlanmalar va boshqalarga asoslangan faoliyatni amalga oshirish bajariladi.

*Uchinchi bosqich* pedagogik faoliyatni amalga oshirish, ularni batafsil ko'rsatmalarga tayanmasdan, balki tashqi ko'rsatmalar asosida amalga oshirishni takomillashtirishga qaratiladi.

*To'rtinchi bosqich* ko'rsatmalarga, xaritalarga, diagrammalarga tayanmasdan, tashqi ko'rsatmalarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirishni ta'minlaydi. Faoliyat mustaqil va ijodiy tarzda amalga oshiriladi.

Ta'lim amaliyotida kompetentli yondashuvni amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Ta'limda kompetentlilikka yo'naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligi tufayli "kompetensiya", "kompetentlik", "tayanch kompetensiyalar" atamaları ta'limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko'proq ishlatilmoqda hamda keng tarqalib bormoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda "metodik kompetensiya" va "metodik kompetentlilik" iboralari deyarli bir xil ma'nodagi tushunchalar sifatida ishlatiladi. "Metodik kompetentlilik" atamasidan to'g'ri foydalanishni asoslash uchun "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. "Kompetensiya" tushunchasiga faoliyatning tayinli sifatiga erishishda zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malakalarga qo'yilgan tashqi talablar majmui deb qarash, o'rinli hisoblanadi. Bunda "kompetensiya"ga o'qituvchining bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy fazilatlarining tizimli namoyon bo'lishi sifatida qaraladi.

Kompetentlilik bu – mavjud nazariy va amaliy bilimlar asosida u yoki bu sohaga oid holda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tayinli faoliyatda natijali maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishni ta'minlashda yordam beruvchi integrativ resurs (qo'shimcha imkoniyat) hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytilsa, *kompetensiya* – maqsadlar, *kompetentlilik* esa – natijalarga erishtiruvchi imkoniyatlardir. Maqsadga erishish har doim rivojlanishga xizmat qiladi. O'qituvchi o'z kompetensiyalarini yangilab borar ekan, bu bilan u rivojlanib boradi, uning kasbiy kompetentligi ortadi.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda metodik kompetentlilik tushunchasiga quyidagidek turlicha izohlar beriladi:

- o'qituvchining turli xil o'qitish metodlari bilan qurollangan bo'lishi, didaktik metodlar, usullarni bilishi va ularni o'quv jarayonida qo'llay olishi, o'quv jarayonida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning psixologik mexanizmlarini bilishi;

- o'qituvchi shaxsining integrativ, ko'p darajali, kasbiy ahamiyatli tavsifnomasi bo'lib, o'qituvchilik kasbiga, kasbiy bilim va ko'nikmalarga birlikda qabul qilingan qadriyat munosabati mavjudligida ifodalanadi;

- o'qituvchining ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlarini, metodik bilim, ko'nikma, tajriba, motivatsiya, qobiliyatlari va yaxlitlikda metodik va pedagogik faoliyatda o'zini o'zi ijodiy anglashga tayyorligini aks ettiruvchi integral tavsifnomasi;

- o'qituvchining o'quv-metodik faoliyatni sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan metodik bilimlar, metodik ko'nikmalar va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar to'plami;

- shaxsning u yoki bu sohada tashqi dunyo bilan samarali o'zaro ta'sir qilish imkoniyatini ta'minlaydigan kompleks shaxsiy resursi, integral xossasi;

- o'qituvchining ilgari egallagan maxsus va kasbiy bilim hamda ko'nikmalari asosida o'zi uchun yangi sharoitlarda o'quv faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati;

- pedagogika oliy ta'lim muassasasi fan o'qituvchisining o'zining psixologik-

pedagogik va metodik bilimlar tizimi asosida malakaviy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati.

Keltirilgan ma'lumotlar bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibida metodik kompetentlik etakchi rol o'ynaydi va bo'lajak o'qituvchida uning qaror toptirilishi kasbiy fanlarni o'qitish maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi vazifalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi, deyishga imkon beradi.

Metodik kompetentlik tushunchasini o'rganishga oid ilmiy izlanishlar tahlili asosida biz o'zimizni mualliflik ta'rifimizni quyidagicha keltirib o'tdik: "metodik kompetentlik – o'qituvchining umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib, u o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim maqsadlariga erishishda metodik vazifalarni samarali hal qilishga tayyorligidir".

O'qituvchining metodik kompetentlik masalasi bo'yicha qilingan tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga olib keladi:

- o'qituvchining kasbiy kompetentligi turlaridan birini ifodalaydi;
- o'qituvchining metodik faoliyatida kasbiy pedagogik faoliyat turlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi;
- o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashni samarali amalga oshirish uchun uning nazariy va amaliy tayyorgarligi birligini ifodalaydi;
- o'quv metodik faoliyatni sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan psixologik-pedagogik, metodik va kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, motivatsiya va shaxsiy fazilatlarini yig'indisiga asoslanishini belgilaydi.

Dissertatsiyaning **“Professional ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyalari”** deb nomlangan uchinchi bobida professional ta'lim o'qituvchilari tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablari mazmuni va metodik faoliyatga tayyorlash modeli ishlab chiqilgan, professional ta'lim o'qituvchilarini auditoriya mashg'ulotlarida metodik kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion ta'lim texnologiyalari yoritib berilgan, kompetentli yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmi ishlab chiqilgan.

Pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan metodik faoliyatda uni amalga oshirish usullari va metodlari – bu murakkab tafakkur jarayoni hisoblanadi. Bugungi kundagi pedagogik adabiyotlarda metodik faoliyatni aniqlashga oid kamida ikkita qarash mavjud. Birinchisida, metodik faoliyat pedagogning metodik ishi, o'qitishning didaktik vositalari va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan faoliyat kabi talqin qilinadi. Biz qo'llab-quvvatlaydigan ikkinchi qarashda esa metodik faoliyat – o'qituvchini alohida bir fan yoki o'quv fanlari bo'yicha o'quv faoliyatini tartibga solish imkonini beradigan didaktik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, konstruksiyalash va tadqiq etish bo'yicha mustaqil kasbiy faoliyati, ya'ni o'qitish bilan bog'liq faoliyat kabi talqin qilinadi.

Metodik faoliyatning *maqsadi* – o'qitish amaliyotiga xizmat qilish hisoblanadi.

Professional ta'lim o'qituvchisining metodik faoliyatining *obyekti* –kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir.

Metodik faoliyat *predmeti* muayyan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini

hisobga olgan holda yangi bilim va ko'nikmalarni turli xildagi usul va metodlar, amalga oshirish va shakllantirish jarayonini tartibga solish usullaridan iborat. Bu faoliyat metodik loyihalash va konstruksiyalash borasida yaratilgan metodik mahsulot (natija) lar orqali bilvosita namoyon bo'ladi.

Metodik faoliyat vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ta'lim mazmunini uzoq muddatli rejalashtirish va o'qitish mazmunini ishlab chiqish, o'quv faoliyatini rejalashtirish va tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan loyihalash faoliyati;

- yangi darsni rejalashtirish, yangi bilim va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka olib keluvchi harakatlar tizimini o'z ichiga olgan konstruktiv faoliyat;

- ta'lim standartlari, o'quv me'yoriy hujjatlar talablarini ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini amalga oshirish shart-sharoitlarini amalda bajarilishiga ko'maklashuvchi me'yoriy rejalashtirish faoliyati;

- tahliliy faoliyat.

- Professional ta'lim o'qituvchilari tomonidan bajariladigan metodik faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- o'quv-dasturiy hujjatlar, uslubiy majmualar tahlili;

- o'quv materialining uslubiy tahlili;

- nazariy va amaliy mashg'ulot darslari tizimini rejalashtirish;

- darsda o'quv axborotlarini taqdim etish shakllarini modellashtirish va konstruksiyalash;

- o'quvchilarning texnik tushuncha va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha faoliyatini konstruksiyalash;

- o'quv fani bo'yicha o'qitish metodikalarini ishlab chiqish;

- kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish turlari va shakllarini ishlab chiqish;

- o'quvchilarning mashg'ulotdagi faoliyatini boshqarish va baholash;

- darsga tayyorgarlik ko'rish va uning natijalarini tahlil qilishda o'z faoliyatini aks ettirish.

Metodik faoliyatning sanab o'tilgan bu turlari, albatta, professional-pedagog kadrlarning metodik amaliyotining barcha xilma-xilligini qamrab olmaydi. Ta'lim oluvchilar metodik tayyorlash jarayonida metodik amaliyotning shunday turlarini egallaydilarki, ular o'qituvchining darslarga tayyorgarligini ta'minlaydi.

Professional ta'lim o'qituvchisi uchun o'z sohasi bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganligi bilan birga, uning o'zidagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga qay darajada mohirona *tushuntira (etkaza) olish* qobiliyati ham muhim rol o'ynaydi. Bu qobiliyatni shakllantirish oliy ta'lim muassasalarida professional ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi.

Professional ta'lim tizimi uchun o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni bilan umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun pedagoglar tayyorlash jarayoni o'rtasida ayrim farqlar mavjud. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida professional ta'lim yo'nalishlarining talabalari tomonidan professional ta'lim muassasalari o'z sohalari o'quv rejasida ko'zda tutilgan 6-7 tagacha umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha maxsus fanlarni o'qitish metodikasi

o'rganiladi. Ayni shu holat professional ta'lim o'qituvchisini metodik faoliyatga tayyorlashda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni taqozo etadi.

Demak, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida oliy ta'lim muassasalarida yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, professional ta'lim muassasalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda, ushbu fanlar bo'yicha nazariy, amaliy, tajriba mashg'ulotlari va o'quv ustaxonalarida olib boriladigan o'quv amaliyoti darslarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha pedagogik faoliyat olib borish ko'nikma va malakalari etarli darajada shakllantirilgan bo'lishi lozim.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini metodik faoliyatga tayyorlash – pedagogik faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek, unga bog'liq bo'lgan faoliyatga xos xarakter sifatlar, qobiliyatlar, qiziqishlari va boshqalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasalarida professional ta'lim (sohalar bo'yicha) bakalavriat yo'nalishlarida o'qitiladigan “Kasb ta'limi metodikasi” fanini o'qitishning shaklan va mazmunan to'g'ri tashkil etilishi, fanni barcha professional ta'lim yo'nalishlari uchun universal metodika asosida o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.


Pedagogikada model tuzilmasini yaratish – real mavjud bo'lgan tizimni maxsus analogini ishlab chiqish orqali moddiy yoki xayoliy-mazmuniy tarzda imitatsiya qilishdir. Ushbu analogda mazkur tizimning tashkil topishi va ishlashi tamoyillari qayta tiklanadi.

Taklif etilayotgan modelning funksional aspekti model tarkibining to'rt blokining har biri muayyan funktsiyalarni bajarishi bilan ta'minlanadi. Tarkibiy-tuzilmaviy aspekt modelning komponentli tarkibini aniqlaydi. Mazkur tarkib to'rtta o'zaro bog'liq va bir birini to'ldiruvchi: maqcadli, mazmunli-metodologik, texnologik-jarayonli, baholovchi-natijaviy bloklarni o'z ichiga oladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik modelning jarayonga oid komponenti zaruriy kasbiy kompetensiyalarning alohida komponentlarini va pedagogik faoliyatni o'ziga xos bosqichlarini rivojlantirishga imkon beruvchi o'qitish usullari, shakllari va vositalarini o'z ichiga oladi. Modelning baholovchi-natijaviy bloki pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari, darajalar va natijadan iborat.

Aytib o'tilganlardan kelib chiqib, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik tayyorgarlik tizimi modelini va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmiga asoslangan holda metodik modelni taklif etamiz (2-rasm).

**“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining sifat va samaradorligi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi yoritilgan, professional ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetensiyalarini shakllanganligini baholash mezonlari, indikatorlari va darajalari keltirilgan, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining miqdor va sifat tahlili bo'yicha olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash natijalari berilgan.



2-rasm. Kompetentli yondashuv asosida bo`lajak professional ta`lim o`qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash modeli

Talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali tekshirish va baholash uchun quyidagi vazifalarni hal etishni belgiladik:

– pedagogik tajribani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarni o‘rganish, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish orqali ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasidan foydalanish istiqbollari asoslab berish.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi talabalarni metodik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan texnologiyani amalda sinab ko‘rishdan iborat. Talabalarda zaruriy kompetensiyalarni rivojlantirishda auditoriyada va auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limni tashkil etish va o‘zlashtirish, mustaqil ta’lim, kurs va bitiruv malakaviy ishlarini bajarish, hamkorlik texnologiyalaridan foydalanildi.

Metodik tayyorgarlikning rivojlanganlik darajalarini aniqlash maqsadida ijodiy, kreativ, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari berildi. Pedagogik tajriba-sinov davomida biz ish beruvchilar, bitiruvchilar va o‘qituvchilar uchun so‘rovnomalar ishlab chiqdik. So‘rovnoma natijalari asosida: OTM bitiruvchisiga kerak bo‘lgan professional faoliyatda zarur bo‘lgan talablarni tahlil qilish; raqobatbardoshlik qobiliyatlari bo‘yicha o‘z-o‘zini tashhislash bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqildi.

Bitiruvchilarni professional faoliyatda raqobatbardoshligini rivojlantirishning boshlang‘ich va oxirgi davrdagi zaruriy professional kompetensiyalarining shakllanish darajasini baholash vositasi sifatida o‘z-o‘zini baholash metodidan foydalandik. Olingan natijalar tajriba-sinov boshlanishi va oxiridagi holatni qiyosiy taqqoslash va kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlash orqali tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari davomida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisini kompetentli yondashuv asosida metodik faoliyatga tayyorlash tizimining shakllanganlik darajalari belgilangan mezon va darajalar asosida aniqlandi. pedagogik tajriba-sinov ishlari tahlili dastlab har bir oliy ta’lim muassasasi bo‘yicha alohida o‘rganildi. So‘ngra barcha natijalar umumlashtirib, matematik-statistik tahlil qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda matematik-statistika usuli qo‘llanildi. Tajriba-sinov ishlariga Jizzax politexnika instituti (JizPI), Namangan muhandislik-texnologiya instituti (NamMTI), Toshkent davlat agrar uniersiteti (ToshDAU) va “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti “TIQXMMI” MTU talabalari respondent sifatida jalb etildi.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni ob‘yektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshirildi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilgani tasdiqlandi.

Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisini metodik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha so‘rovnomalar yuzasidan shu bobda berilgan statistik ma’lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish

uchun umumlashgan dastlabki va yakuniy javoblari OTMLar kesimida keltirilgan (3-jadval).

### 3-jadval.

#### Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining tajriba boshidagi (Tb) va tajriba oxiridagi (To) natijalari (OTMLar kesimida)


Tajriba-sinov maydonlari	Guruhlar	Talabalar soni		Baholash mezonlari					
				yuqori		o‘rta		‘ast	
				Tb	To	Tb	To	Tb	To
JizPI	Tajriba guruhi	157	Tb-79 To-78	20	36	29	34	30	8
	Nazorat guruhi	148	Tb-75 To-73	15	16	27	31	33	26
NamMTI	Tajriba guruhi	93	Tb-48 To-45	11	21	18	18	19	6
	Nazorat guruhi	93	Tb-47 To-46	11	11	16	18	20	17
ToshDAU	Tajriba guruhi	148	Tb-75 To-73	16	33	28	31	31	9
	Nazorat guruhi	154	Tb-78 To-76	16	18	29	30	33	28
“TIQXM MI” MTU	Tajriba guruhi	167	Tb-84 To-83	19	38	31	34	34	11
	Nazorat guruhi	173	Tb-88 To-85	18	19	32	36	38	30
<b>Jami</b>	<b>Tajriba guruhi</b>	<b>565</b>	<b>Tb-286 To-279</b>	<b>66</b>	<b>128</b>	<b>106</b>	<b>117</b>	<b>114</b>	<b>34</b>
	<b>Nazorat guruhi</b>	<b>568</b>	<b>Tb-288 To-280</b>	<b>60</b>	<b>64</b>	<b>104</b>	<b>115</b>	<b>124</b>	<b>101</b>

Izoh: Tb – tajriba boshida, To – tajriba oxirida.

Tajriba-sinov boshidagi natijalarga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta’kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Student va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik-statistik metodning mohiyatiga ko‘ra, dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd




etilgan statistik ko'rsatkichlar tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko'rsatkichlari bo'yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi. Bu diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi:



**3-rasm. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari boshidagi natijalar diagrammasi**

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o'rta ko'rsatkichlar nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan sezilarli farq qilmaydi. Statistik tahlil natijalariga asosan, tajriba avvalidagi o'rtacha o'zlashtirish  $(61,0 - 59,3) \% = 1,7\%$  ga farq qilar ekan. Demak, tajriba-sinov boshida o'rtacha o'zlashtirishlar orasidagi farq sezilarli emas.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tajriba-sinov oxirida tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun umumlashgan holatda statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Bu diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi (4-rasm):



**4-rasm. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari oxiridagi natijalar diagrammasi**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan.

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligi bilan ko‘rish mumkin. Yuqoridagi statistik tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki, kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba guruhlaridagi o‘zlashtirish nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan.

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetentli yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish shakllari, metodlari va vositalaridan unumli foydalangan tajriba guruhlarida pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rsatkichi 15,7 foizga oshganligi aniqlandi.

## XULOSA

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan didaktik, pedagogik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Professional ta‘lim o‘qituvchisining tashkil etuvchisi sifatida pedagogik faoliyat, avvalo, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, unga bog‘liq faoliyatga xos sifatlar, qobiliyatlar, qiziqishlar va boshqalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda oliy ta‘lim muassasalarida professional ta‘lim (sohalar bo‘yicha) bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan “Kasb ta‘limi metodikasi” fanini o‘qitishning shaklan va mazmunan to‘g‘ri tashkil etilishi, fanni barcha professional ta‘lim yo‘nalishlari uchun universal metodika asosida o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kasb ta‘limi metodikasining nazariy asoslari o‘qitish metodikasi va nazariyasining, o‘qitish metodikasi va texnologiyasining o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro munosabatlari hamda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida ta‘lim oluvchilar faoliyatining asosiy dasturlari haqidagi qoidalar bilan belgilanadi. Tarixiy-ilmiy manbalar misolida qilingan yuqoridagi tahlil va “Kasb ta‘limi metodikasi” fani o‘qitilishining bugungi holati kasb ta‘limi metodikasining mohiyatini aniqlashga yagona yondashuv mavjud emas va etarli darajada o‘rganilmagan, degan xulosaga kelish imkonini beradi va mazkur muammoni yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

3. Bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimining modeli kompetensiya asosida qurilgan. Ushbu modelning asosiy komponentlari bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan faoliyatning asosiy, invariant funksional birliklarini professional tayyorgarligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, 1-bosqichda pedagogik faoliyat tuzilishi va algoritmining nazariy asoslari o‘zlashtiriladi; 2-bosqichda pedagogik tayyorgarlikning mohiyatini belgilovchi professional va metodik harakatlar elementlari shakllantiriladi; 3-bosqichda pedagogik faoliyatni bajarish batafsil ko‘rsatmalarsiz, lekin tashqi rahbarlik asosida amalga oshiriladi; 4-bosqichda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik mustaqil (ko‘rsatmalar va tashqi rahbarlikka tayanmasdan) va ijodiy ijro etish darajasiga keltiriladi.

4. Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning ishlab chiqilgan tizimini maqbul ravishda amalga oshirishga didaktik majmua, shu jumladan, fan dasturlari, darsliklar, amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar va topshiriqlar, pedagogik amaliyot davomida metodik faoliyatni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar, talabalarga vazifalarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar yordam beradi.

5. Kompetentli yondashuvning zamonaviy nazariyasiga xos bo'lgan ayrim asosiy tushuncha va atamalarni talqin qilishda mavjud nomuvofiqlik tufayli ilmiy tadqiqotlarimiz doirasida "kompetentlilik" va "kompetensiya" atamalarining asosliligi va o'zaro almashinishi tahlili amalga oshirildi. Biz "kompetentlilik" ni hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar yoki kasbiy faoliyatning jihatlari sifatida, "kasbiy kompetensiya"ni esa ma'lum bir kasbiy ahamiyatga ega vazifani hal qilish qobiliyati sifatida tushunish va talqin qilishni taklif etamiz.

6. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik mazmunini tanlash olti bosqichda amalga oshirilishi kerak. Birinchi to'rt daraja kasbiy pedagogik faoliyat, uning turlari va tarkibiy qismlari bilan bog'liq. Beshinchi daraja – u yoki bu funksional faoliyat birligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsning bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalari va kasbiy ahamiyatli kompetensiyalari, oltinchi daraja – o'quv mazmunini didaktik tarkib birliklari, modullarini, metodik tayyorgarlik bo'yicha fanlarni joylashtirish bilan aniqlanadi.

7. Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmi ishlab chiqildi. Professional ta'lim tizimi mahlum bir ko'p bo'g'inli tuzilmani tavsiflashini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tuzilma, xususan, o'quv fanining mazmunini, shuningdek, kasbiy faoliyat turini va kompetentlilik, kompetensiya va malaka uchligini o'z ichiga oladi. Tarkibni tanlash algoritmining tuzilishi asosiy komponentlardan: o'quv fani (o'qitish) mazmuni, kasbiy faoliyat turi va kompetensiya, kompetentlilik va malakalarning uchligidan iborat.

8. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini kompetentli yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasining takomillashtirilganligi tajribaga qadar olingan natijalarga nisbatan 15,7% ga oshganligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga kiritilgan o'quv-metodik ta'minot hamda metodika asosida olib borilgan nazariy va amaliy, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari samarali ekanligidan dalolat berdi.

O'tkazilgan nazariy izlanishlar va eksperimental tadqiqotlar natijasida kompetentli yondashuv asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisini pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi metodik metodik **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Professional ta'lim yo'nalishlarida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda asosiy fan hisoblangan "Kasb ta'limi metodikasi" fani ikki qismga bo'lib "Kasb ta'limi metodikas" (umumiy metodika) va "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" (xususiy metodika) fanlari sifatida o'qitilishi maqsadga muvofiq;

2. Professional ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Kasb ta'limi metodikasi" va "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanlarini o'qitishda ularning uzviyligi ta'minlanishi va mantiqan bir birini davom ettirishi lozim;

3. “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan amaliy mashg’ulotlarni kasbiy faoliyat turlariga yo’naltirib olib borish metodikasini takomillashtirish zarur;

4. Professional ta’lim yo’nalishlarida talabalarini mustaqil ta’lim olishida raqamli texnologiyalardan foydalanishga kengroq imkoniyat yaratish, o’quv fanlari bo’yicha mobil ta’limni qo’llash maqsadga muvofiq;

5. Professional ta’lim o’qituvchisining metodik kompetentligi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini asosiy ko’rsatkichi bo’lib zamonaviy ta’lim texnologiyalari va raqamli texnologiyalar asosida doimiy takomillashtirib, to’ldirib borilishi zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ РАЗИТИЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И  
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

**МАХСУДОВ ПУЛАТЖОН МАХСУДОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО  
ПЕДАГОГА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К  
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ  
КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА**

**13.00.05 – Теория и методика профессионального образования**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК**

**Ташкент – 2025**

Тема диссертации доктора (DSc) педагогических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за №В2023.1.DSc/Ped463

Диссертация выполнена в Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.ipitvet.uz) и информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

**Научный консультант:**

**Исмаилова Зухра Карабаевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Муслимов Нарзулла Алиханович**  
доктор педагогических наук, профессор

**Хакимова Мухаббат Файзиевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Уринов Уйгун Абдуллаевич**  
доктор педагогических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный технический университет имени И.А.Каримова**

Защита диссертации состоится «15» 01 2025 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.05/29.12.2023.Ped48.01 при Институте развития профессионального образования. (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зиё, дом 76). Тел.: (99871) 246-92-17; факс: (99871) : 246-90-37; E-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института развития профессионального образования (зарегистрирована за № 117). (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зиё, дом 76). Тел.: (99871) 246-92-17; факс: (99871) 246-90-37).

Автореферат диссертации разослан «4» 01 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 14 от 4.01 2025 года).

**Р.Х.Джураев**  
Председатель Научного совета  
по присуждению учёных  
степеней, д.п.н., академик

**С.Ю.Ашурова**  
Заместитель секретаря Научного  
совета по присуждению учёных  
степеней, д.п.н., профессор

**Х.Ш.Кадиров**  
Председатель Научного  
комитета при Научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня во всех сферах жизнедеятельности мирового сообщества происходят многогранные изменения, что, в свою очередь, требует новых подходов к профессиональному становлению будущих педагогов. В условиях модернизации содержания образования от будущих преподавателей профессионального образования требуется овладение профессиональными знаниями, умениями, навыками и компетенциями, а также их применение в процессе профессионального обучения. В мировой практике при подготовке педагогов профессионального образования к профессиональной деятельности большое значение имеет обучение их самостоятельному действию, саморазвитию на основе вариативных образовательных технологий, направленных на развитие личностных и профессиональных качеств (рефлексивность, самоактуализация, креативность, положительная «Я-концепция», поиск, обработка подходящей информации, а также эффективное использование цифровых технологий в образовательном процессе).

Моделирование подготовки будущего учителя профессионального образования к методической деятельности на основе компетентностного подхода, проектирование, реализация и разработка содержания методической подготовки через функционально-деятельностный и компетентностный подходы, отражающие взаимосвязь навыков, деятельности и компетентности в неразрывной связи с аналитическими компонентами, совершенствование методики развития профессиональных компетенций и подготовки студентов к профессиональной деятельности на основе разработки мобильных приложений и программного обеспечения, разработка мотивационных, аксиологических, методических, творческих критериев определения уровня подготовки студентов к методической деятельности являются актуальными задачами в мировом масштабе. В связи с этим важно совершенствовать методику развития компетентности будущих учителей профессионального образования и обеспечить все дидактические возможности для глубокого освоения когнитивного, инновационного, проектного, нормативно-планового, конструктивного, аналитического, технологического уровней профессиональной педагогической деятельности.

В нашей стране особое внимание уделяется повышению эффективности высшего профессионального образования, разделению профессионально-педагогических компетенций на структуры, созданию новых методических моделей обучения и их применению в образовательном процессе. В рамках реформ в системе высшего образования Президентом Республики Узбекистан утверждена «Концепция развития системы высшего образования до 2030 года»<sup>4</sup>, в которой особое внимание уделяется таким вопросам, как «повышение

---

<sup>4</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года №ПФ-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» <https://lex.uz/docs/4545884>

внимания к качеству подготовки кадров в гуманитарных и педагогических направлениях, пересмотр и усовершенствование учебных планов и программ по направлениям и специальностям педагогического образования на основе передового зарубежного опыта, формирование навыков применения современных педагогических технологий в образовательном процессе у студентов, обучающихся в данном направлении, улучшение инфраструктуры педагогического образования, обеспечение всех общеобразовательных школ в регионах высококвалифицированными профессиональными педагогическими кадрами, освоившими иностранные языки». «Несомненно, еще одной основной задачей сферы образования является воспитание необходимого для сегодняшнего дня нового поколения, образованной молодежи, хорошо освоившей основы науки и своей специальности». Из этого следует, что в настоящее время требуется повысить качество и эффективность обучения в высших учебных заведениях, обеспечить, чтобы будущие преподаватели обладали достаточными знаниями, умениями и навыками по своей профессиональной дисциплине, а также овладели профессиональными компетенциями в области методики преподавания.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 29 октября 2020 года № УП-6097 от «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 8 октября 2019 года №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 6 сентября 2019 года №УП-5812 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования», постановлениях от 31 декабря 2020 года №ПП-4939 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы оценки квалификаций и обеспечению рынка труда квалифицированными кадрами», от 21 июня 2022 года №ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>5</sup>.**

---

<sup>5</sup> Шавкат Мирзиёев. Новая стратегия Узбекистана. - Ташкент: Издательство «Узбекистан», 2021. 464 стр

<sup>5</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлен на основе <https://www.massachusetts.edu/> <https://bellfield.nsw.edu.au/> [https://ceinternational1892.org/article/emerging-technologies-and-their-implications-in-early-childhood/?gad\\_source=1&gclid=EAIaIQobChMI3K6pnb-xigMV1giAx2D9Vc0EAAAYASAAEgJqYPD\\_BwE](https://ceinternational1892.org/article/emerging-technologies-and-their-implications-in-early-childhood/?gad_source=1&gclid=EAIaIQobChMI3K6pnb-xigMV1giAx2D9Vc0EAAAYASAAEgJqYPD_BwE) <https://www.iscu.ac.kr/global/eng/> <https://rsvpu.ru/> <https://tiame.uz/> <https://www.bayer.com/media/en-us/smallholder-farmers-from-africa-call-for-improved-access-to-technology-to-enable-regenerative-agriculture-and-foster-resilience/> и др. источников.



Научные исследования по вопросам подготовки будущих учителей профессионального образования к профессиональной деятельности, компетентностного подхода как ведущей стратегии профессионального образования проводятся в таких престижных научно-исследовательских центрах и высших учебных заведениях, как Massachusetts University (США), Belfield pedagogical University (Германия), National Advice on pedagogical Technology (Англия), Seoul Cyber University (Южная Корея), Российский государственный профессионально-педагогический университет (Россия), Национальный исследовательский университет “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” (Узбекистан).

В результате проведенных исследований по проблеме применения дидактических средств обучения в процессе профессиональной подготовки студентов в высших учебных заведениях получен ряд научных результатов, в том числе разработана интегративная технология развития творческих способностей студентов на основе традиционных и современных дидактических средств обучения (Chicago university, Америка); В Англии, США и других развитых странах проводится масштабная работа по модернизации системы профессиональной подготовки. Современные технологии обучения, применяемые в образовательном процессе развитых стран (тьюторская система обучения, специализация обучения, бригадно-индивидуальное обучение, взаимообучение или взаимоконсультирование), обеспечивают интеллектуальное и психоэмоциональное развитие, творческий рост и всестороннее индивидуальное развитие специалистов профессионального образования.

